



AN'NAVIY XONANDALIKDA TOVUSH PAYDO QILINISHI ORGANLARINING FAOLIYATI VA ULARNING TUZILISHI

Artiqov E.R.

Buxoro davlat universiteti

Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ovoz, nafas olish, ko'krak qafasi, ovoz aparati, qoshiq, Yusuf Xos Hojib, Devonu lug'atit turk, sh'er, qasida, rajaz.

Ключевые слова: голос, дыхание, грудная клетка, голосовой аппарат, ложка, Юсуф Хас Хаджиб, словарь турецкого языка Девону, поэзия, касыда, раджаз.

Key words: voice, breathing, chest, voice apparatus, spoon, Yusuf Khos Hajib, Devonu dictionary of Turkish, poetry, qasida, rajaz.

O'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganish va uni keng omma ichida targ'ib qilish ishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, buyuk siymolar va olimlari ahamiyatida rivojlanib kelganidek, mohir ijrochilari zimmasida bo'lmog'i zarur. Chunki bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosning ustozdan shogirdga bevosita o'tishida tabarruk zotlar ko'prik vazifasini o'tash bilan birgalikda o'zlarining ijodlari bilan ham namuna bo'lganlar.

Musiqa san'ati sohasida talabalar o'zlashtirishlari kerak bo'lgan yo'nalishlaridan biri ansambl sinfi bilan ishlash hisoblanadi. Ansambl ishtirokchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ansambl sinfida o'qitish jarayonini tashkil etishning qonuniyatlari va tamoyillari bo'yicha nazariy bilimlar, ko'nikma va malakalarni hosil qiluvchi fan bu ansambl bilan ishlash uslubiyoti fanidir.

Musiqa mutaxassislarini tayyorlash muammolarini nazariy va empirik tushunish nisbatan qisqa tarixga ega. Mamlakatimiz musiqashunos olimlari tomonidan ansambl bilan ishlash va an'anaviy xonandalik bo'yicha bir qator nazariy, metodik va amaliy nashrlar mavjud.

Qadimgi qo'shiqchilik san'ati janrlari va shakllari rang-barang bo'lib, ular ijtimoiy turmush, xalq an'analari hamda marosimlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. O'рта Osiyo xalqlari qo'shiqchilik san'ati asosan madhiyalar, allalar, yig'i, harbiy chaqiriqlar, ibodat qo'shiqlari, tantanalar, bayramdagi qo'shiqlar tarzida namoyon bo'lgan. Qadimgi davlatlarda qo'shiqchilik san'ati xalq san'ati shaklida paydo bo'lib keyinchalik sinfiy jamiyatga o'tish va ijtimoiy tabaqalanish natijasida uning kasbiy (professional) shakli



ajralib chiqa boshlagan. O'rta Osiyoda eramizdan avvalgi dastlabki ming yilligning birinchi yarimida, ya'ni ilk temir davrda ibtidoiy jamoa tuzimi o'zining so'nggi bosqichni o'tib, uning o'rniga sinfiy jamiyat yuzaga kelganligi nazarda tutilsa, unda professional qo'shiqchilik san'atining ilk asoslari bundan ikki yarim ming yil avval shakllana boshlagan deyish mumkin. O'zbekiston tarixidagi barcha davrlarda qo'shiqchilik san'atida kishilarni Vatanga sadoqatli, komil insonla qilib tarbiyalashga masalalariga katta e'tibor berilgan.

Bo'g'iz, burun bo'shliqlari, nafas olish naycha yo'llari hamda, o'pka tovush hosil qiluvchi a'zoldan hisoblanadi. Hiqildoq esa nafas olish naychasi (traxeya) va xalqum orasida joylashgan bo'lib, nafas yo'lining bo'shlig'ining tikkasida kesilgan xolda qum soatiga o'xshash bo'ladi. Hiqildoqning ichidan shilimshiqro parda bilan qoplangan, 4 ta tomoq tog'ayidan iboratdir. Ular qalqonsimon 2ta qora talat va barmoqsimon hoolda bo'ladi. Ular o'zaro bir-biriga bog'langan va mushaklar bilan ta'minlangan va tomoq tog'aylari yoshiga qarab sekin-asta suyakka aylanib boradi. Bo'g'iz yuqori bo'limida esa ustki boylam bo'shlig'i-yolqon tovush boylamigacha cho'zilgan bo'ladi.

Morganiyevlar oshqozoni nomini olgan 2 tomonlama chuqurlashgan qismi, yolqon tovush boylamlaridan haqiqiy ovoz boylamigacha cho'zilgan bo'ladi. Xiqildoqning pastki boylam bo'shlig'i barmoqsimon tog'ayning pastki chekkalarigacha yetadi, qalqonsimon tog'ay tovush paychasining uzunligiga bog'liq bo'lib, erkaklarda ayollarnikiga nisbatan uzunroq, kuchli rivojlangan. Bu hiqildoqning kattaligiga ta'sir qiladi. Ayollar hiqildog'ining eng kattasi taxminan erkaklardagi eng kichkina bo'g'iz bilan teng. Hiqildoq til ostidagi harakatchan suyakka mahkamlangani va umurtqa oldi muskul pardasi bilan bog'langani sababli hiqildoq asta va faol harakat qilishi mumkin.

Xonandalikda talaba ovozini yo'lga qo'yishning amaliy va nazariy usublari pedagogik muammo sifatida.

Talabalarga xonandalikda ovozni yo'lga qo'yishni o'rgatish jarayonida barcha xonanda-o'qituvchilar to'rtta bosh tamoyilga asoslanadi:


1. Ta'limda ketma - ketlik va uzluksizlik tamoyili. Bu umumpedagogik tamoyil bo'lib, u ta'lim jarayonida soddadan - murakkabga asoslanadi. Uzluksizlik hamma narsada zarur - xonandaning diapazonini kengaytirishda ham, mashqni murakkablashtirishda ham, repertuar tanlashda, ruhiy kechinmada

– lirikadan dramatik asarlarga (his - tuyg'ular cho'qqisiga), repertuarni kuchaytirilishi ovozni yo'qolishiga olib boradi. Talabalar bilan mashg'ulotlarda ovozning sifati, toblanishi, tebranishi, uzoqqa yetishi haqida qayg'urish kerak. Repertuarni kuchaytirishga yo'l qo'ymaslik kerak.

2. Badiiy - musiqa va vokal texnik tamoyillarining birligi. Xonandani qoida bo'yicha tarbiyalash uchun bir vaqtning o'zida ikki muammoni hal qilish talab qilinadi: ijro etish apparatini qurish - demak xonandani professional ovozini hosil qilish va unda aytishni mashq qilish. Bu ikki masala bir vaqtda bir- biriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Har qanday, hattoki, eng sodda

Ansambli sinfidagi musiqa asari ustida ishlashning to'rtta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin, ular muayyan ijro vazifalarini hal qilishga qaratilgan: ansambli

jamoasini asar bilan tanishtirish, musiqachilar tomonidan ansambl qismlarini o'rganish, ansambl guruhlarida mashg'ulotlar va ansambl mashg'uloti. Ansambl sinfida ishning bosqichlarga bo'linishi ma'lum darajada shartli. Ansambl sinfidagi mashg'ulotlarning turli bosqichlarida ijro rejasini amalga oshirish bo'yicha tabaqalashtirilgan vazifalarni belgilash o'qituvchiga ish



ketma-ketligini aniqlashga yordam beradi, jamoaning samaradorligini oshiradi va ijro sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ansambl jamoasini asar bilan tanishtirish. Ijrochilik rejasini tez amalga oshirish uchun darsni estrada ansambli sozandalarini bastakor hayoti va ijodi bilan qisqacha tanishtirishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Keyin ishning asosiy mazmuni ochib beriladi, tasvirlarning qisqacha tavsifi va ularning rivojlanishi beriladi, ansambl teksturasining shakli va o'ziga xos xususiyatlari tushuntiriladi, kompozitsiyani (yoki aranjirovkani) asbobsozlik xususiyatlari qayd etiladi, eng qiyin bo'laklar ko'rsatilgan, alohida musiqachilarning e'tibori ularning qismlaridagi yakkaxon va mas'uliyatli epizodlar, ohang ish rejasi, temp va uning o'zgarishlari, dinamik gradatsiyalar xususiyatlari, shaxsiy va umumiy kulminuslarga qaratiladi. Agar o'rganish uchun mo'ljallangan musiqa asari ma'lum bir adabiy syujetda yozilgan bo'lsa, o'qituvchi uning mazmunini qisqacha bayon qiladi. Adabiy manbaning umumiy syujetini bilish ijrochilarga musiqa asarining asosiy g'oyaviy-badiiy mazmunini to'g'ri tushunishga, uni mazmunli o'rganishga kirishishga yordam beradi

Agar bastakor o'z asarini ijro etish uchun talablarni batafsil bayon qilsa, o'qituvchi ularni jamoaga tanishtirishi kerak. Asarni yaxlit ansambl bilan «ishlah» foydalidir, bu sizga kompozitsiyadagi ishning taxminiy hajmini aniqlashga va siz eng ko'p e'tibor berishingiz kerak bo'lgan asosiy havolalarni aniqlashga imkon beradi. Bu musiqachilarga o'qituvchining ijro rejasi haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Ansamblni asar bilan tanishtirish o'qituvchining asosiy tematik materialni kuylashi yoki cholg'u asboblarida alohida mavzularni o'ynashi bilan birga bo'lishi mumkin. Agar musiqachilar notalarni yaxshi o'qisa, yangi asar bilan tanishish yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu qimmatli sifatni ansambl kundalik mashaqqatli mehnatda egallaydi. O'qituvchi ansamblning notanish musiqiy matnda erkin va tez harakat qilish qobiliyati vaqtini tejashini bilib, bu jamoaviy mahoratni doimiy ravishda rivojlantiradi.

Ko'nikmani elementar ijro etish uchun avvalo, ovozga ishlov berish, shundan so'ng ijro mahoratini egallash kerak, deb o'ylagan katta xatoga yo'l qo'yadi. Busiz aktyor-xonandani tarbiyalash mumkin emas.

Xonanda - bu o'ziga xos musiqiy asbob. Hammasi juda alohidalikni talab qiladi. O'zgarmas (dogmatik) ko'rsatmalar vokal pedagogikasiga zarar yetkazadi. Har bir talabaning imkoniyat darajasi har xil bo'ladi, chunki uning ovozini kuchi va chidamliligi shaxsiy xarakteriga bog'liq. Ayniqsa, uning ruhiy xususiyatlarini bilish va ularga ahamiyat



berish, ovozga ortiqcha ruhiy taʼsir koʻrsatmaslik kerak. Talaba xarakteri hamma sohada mustaqil ravishda ovozning mayinligida ham, kengligida ham, quvvati, chidamliligi, sifatida hamda isteʼdodli, sergʻayrat, hayoli, irodali yoshlarda ochiq - oydin namoyon boʻladi. Shu sababli darslarni yuqoridagilarni eʼtiborga olgan holda oʻtkazish kerak.

3. Muntazam mukammallikka erishish tamoyili.

Bu tamoyil soʻnggi yillarda eʼlon qilingan. Agar talaba oʻz ustida mustaqil ravishda shugʻullanmasa pedagog mashgʻulotlarida bergan bilimining talabaga foydasi boʻlmaydi. Taʼlimning soʻnggi jarayonlarida talabaning mustaqil tayyorlanishiga alohida ahamiyat beriladi.

Tamoyil - bu asosiy gʻoya, uslub esa maqsadga erishish yoʻli. Vokal pedagogikasida quyidagi uslublar mavjud:

Xonandani tarbiyalash jarayonida oʻqituvchi turli usullardan foydalanadi. Birinchi oʻrinda vokal eshitishni tarbiyalash va mukammallashtirib borishga nazorat bilan barcha vokal sifatlarini rivojlantirish turadi. Talabada xonandalik jarangdorligini toʻgʻri tashkil etish haqidagi tasavvurni ishlab chiqish zarur. Taʼlim doimo musiqa materiallari mashq, vokal va badiiy asarlar asosida olib boriladi. Toʻgʻri tanlangan musiqiy manba tovushni tarbiyalaydi. Mashq - bu bilim olishning asosiy vositasi.

Ularni qoʻllash talabalar tovushida uchraydigan va tuzatishni talab etadigan kamchiliklarni yoʻqotish vositasi boʻlib xizmat qilishi kerak. Ovozga sayqal berish mashqlari - mashqdan badiiy asarlarga oʻtish uchun foydali manba hisoblanadi. Oʻqituvchi tomonidan katta odob saqlagan holda badiiy pedagogik manba tayyorlash talab etiladi. Manbalarni musiqiy, vokal - texnik va ijro qiyinchiliklarini eʼtiborga olib tahlil etish - oʻqituvchining zaruriy sifati hisoblanadi. Keng koʻlamli musiqiy pedagogik manbalarni egallash va ularni qoʻllay bilish - pedagogik faoliyat muvaffaqiyati talablaridan biri. Asarni muvaffaqiyatli ijrosi uchun oʻrganish va ashula aytish usuli katta ahamiyat kasb etadi. Talaba asarlar ustida ishlash uslubini keng koʻlamli va turli - tuman repertuarlarni tezroq oʻzlashtirib olishi uchun oʻrganishi kerak.

Tovush sifatini koʻzlangan natijada tarbiyalashda ovozni koʻrsata bilish katta ahamiyat kasb etadi. Koʻrgazmali qurollar koʻra oladigan va sodda boʻlgani uchun ham kerakli koʻnikmalarni shaxsan topishga majbur etadi. Buning uchun oʻqituvchining oʻzi ham yaxshi ovozga ega boʻlishi lozim, talaba esa - taqlid qobiliyatiga ega. Biroq taqlid kuylashni oʻrganishda majburiy hisoblanmaydi. Masalan, Lamperti xonanda boʻlmagan, biroq buyuk xonandalarni tarbiyalagan.

Muskul usullarini koʻrsatish va tushuntirish oʻqituvchi amaliyotida katta oʻrin egallaydi. Muskul usuli doim muayyan narsalarni qamrab oladi, doim toʻxtata oladi yoki tovush apparatidagi ishlarning qaysidir qismini oʻzgartiradi. Talaba avval nima qilishini tushunib oladi, keyin esa bu harakatlarni ashula aytish paytida tushungan holda qoʻllashga harakat qiladi. Muskul usulining qimmatligi ham mana shundadir. Nutq orqali



tushuntirish, soʻz ahamiyati - ovoz tuzilishi haqidagi ishonchli tushunchani tarbiyalashda oʻta muhim omil sanaladi. Ashula aytishni oʻrganishda nutq orqali tushuntirish juda muhim, negaki tovush apparati ishida sababli - kuzatuvli oʻzaro hamkorlikni tushuntiradi va uning ishini bir muncha aniq tushunib yetishga imkon beradi. Tovush va muskullarni his etishni nutqiy tushuntirish har doim ham oʻzini oqlayvermaydi, oʻqituvchi koʻpincha qiyoslashga, obrazli ifodalashga harakat qiladi. Agar ular talabalarga tushunarli boʻlsa qoʻllaniladi va kerakli javob harakatlarini keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoevning maʼruzasidan Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati gazetasining 2017 yil 4 avgustda 32 (4431)-sonida chop etilgan.
2. Мустафоев Б. И. Особенности уроков музыки в общеобразовательных школах //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 1 (42). – С. 46-48.
3. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. Бухарские древние музыкальные группы-средство образования //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 26-28.
4. Mustafoev B. I., Samieva M. A. Bukhara ancient music groups-a means of education. – 2021.
5. Мустафаев Б. И., Нуруллаев Б. Г. Образовательное значение обучения детским народным песням в системе музыкального образования //Academy. – 2021. – №. 3. – С. 45-47.
6. Мустафаев Б. Музыкально-образовательная и просветительская деятельность АБДУРАУФА ФИТРАТА //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 361-364.
7. Б.И. Мустафаев Содержание музыкально-педагогической системы в Узбекистане в 70-е годы XX века- Наука и технологии, 2023
8. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Effectiveness of the process of teaching Bukhara children folk songs in music class <https://www.eurchembull.com/issue-content/effectiveness-of-the-process-of-teaching-bukhara-children-folk-songs-in-music-class-7277> ECB European Chemical Bulletin.ISSN 2063-5346 Eur.Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 16389-16397
9. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Vozmozhnosti sovershenst - vovaniya protsessa obucheniya uzbekiskomu muzykalnomu folkloru Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya (2023 god №7) ISSN 2181-1717(E) <http://interscience.uz> mejdunarodnyy nauchno - metodicheskiy jurnal
10. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Distinctive Features of Folk Songs That Serve in The Spiritual and Moral Formation of Pupils International Journal of Culture and Modernity <https://ijem.academicjournal.io> ISSN 2697-2131, Volume 29/ Jun-2023
11. Tukhtasin Ibodovich Rajabov The Role of Folk Songs in Children’s Education MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 <https://cejsr.academicjournal.io> Middle European Scientific Bulletin, Volume 37 | June-2023.
12. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Izuchenie uzbekskix folklorных narodных pesen i ix psixologicheskoe vliyaniye. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axbototnomasi 2 son, 2023 yil 127-130- bet.
13. Tukhtasin Ibodovich Rajabov Tematicheskaya klassifikatsiya uzbekskogodetskogo muzykalno-igrovogo folklor. 10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp340-345 «Jamiyat va innovatsiyalar» jurnali (www.inscience.uz Tom 4 № 5/S (2023): Spetsvyipusk mejdissiplinarnogo elektronno go nauchno go jurnala «Obshchestvo i innovatsii»

РЕЗЮМЕ

Nafas olish normal kechsa, avval aytilgandek, kuylovchining asosiy eʼtiborini chiroyli, erkin jarangga qaratish, u doimo butun ovoz hosil qilish apparati toʻgʻri ishlash bilan bogʻliqligini yodda tutish lozim.

РЕЗЮМЕ

Если дыхание нормальное, как говорилось ранее, певец концентрируясь на красивом, свободном звуке, всегда создавая цельный звук необходимо помнить, что это связано с корректной работой устройства.

SUMMARY

If the breathing is normal, as mentioned earlier, the singer focusing on a beautiful, free sound, always creating a whole sound it is necessary to remember that it is related to the correct operation of the device.